“XX ASR BIRINCHI YARMIDA O‘ZBEK RASSOMLARI IJODIDA MILLIY MEROS VA RUS BADIIY TAJRIBASI”

Zarifova Dilfuza Omon qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti doktaranti
@mail: foziljonxolov87@gmail.com
Orcid: 0009-0001-4521-7364

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarmida O‘zbekiston dastgohli rangtasviri rivojiga rus badiiy maktablarining ta’siri va milliy bezak an’analarining o‘zbek rassomlari ijodida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Bu davrda O‘zbekistonda yangi tasvirlash usullari, rang bilan ishlash tajribasi va kompozitsiya tuzish tamoyillari shakllana boshladi. Rassomlar Yevropa va rus rangtasvirining yutuqlarini o‘rganish bilan birga, o‘zbek xalqining turmush tarzi, me’moriy obidalari, milliy naqshlari va ranglaridan ham ilhom oldilar. Maqolada ushbu jarayonning milliy san’at rivojidagi o‘rni hamda tarixiy an’analarni zamonaviy ijod bilan bog‘lash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston rangtasviri, rus badiiy maktablari, dastgohli rangtasvir, milliy san’at, amaliy bezak san’ati, naqsh, rang, kompozitsiya, badiiy an’ana.*

Аннотация. *В статье рассматривается влияние русских художественных школ на развитие станковой живописи Узбекистана в первой половине XX века, а также отражение национальных декоративных традиций в творчестве узбекских художников. В этот период начали формироваться новые способы изображения, опыт работы с цветом и принципы построения композиции. Художники изучали достижения европейской и русской живописи, одновременно черпая вдохновение в образе жизни узбекского народа, архитектурных памятниках, национальных орнаментах и цветовых традициях. В статье рассматриваются значение этого процесса для развития национального искусства и возможности связи исторических традиций с современным творчеством.*

Ключевые слова: *живопись Узбекистана, русские художественные школы, станковая живопись, национальное искусство, декоративно-прикладное искусство, орнамент, цвет, композиция, художественная традиция.*

Abstract. *This article examines the influence of Russian art schools on the development of easel painting in Uzbekistan during the first half of the 20th century, as well as the ways in which national decorative traditions were reflected in the works of Uzbek artists. During this period, new approaches to representation, the use of color, and principles of composition began to develop. While studying the achievements of European and Russian painting, artists also drew inspiration from the lifestyle of the Uzbek people, architectural monuments, national ornaments, and traditional color schemes. The article explores the significance of this process in the development of national art and the possibilities of connecting historical traditions with contemporary artistic practice.*

Keywords: *Uzbek painting, Russian art schools, easel painting, national art, decorative and applied arts, ornament, color, composition, artistic tradition.*

Kirish. Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston san’ati uzoq yillar davomida xalq amaliy

bezak san’ati, me’morchilik, miniatyura va boshqa badiiy an’analar asosida rivojlangan. XX asrning birinchi yarmida esa mamlakat rangtasvir san’atida yangi o‘zgarishlar yuz berdi. Shu qatorda dastgohli rangtasvir san’ati ham keng rivojlana boshlagani, rassomlar inson qiyofasi, tabiat manzarasi, kundalik hayot va tarixiy muhitni yangi usullarda tasvirlashga intildilar. Bu jarayonda rus badiiy maktablarining ta’siri muhim o‘rin tutdi. Rus rassomlik ta’limi orqali o‘zbek san’atiga inson qomatini to‘g‘ri tasvirlash, yorug‘lik va soyani o‘rganish, ranglar munosabatini aniqlash hamda kompozitsiyani puxta qurish tajribasi kirib keldi. Shu bilan birga, mahalliy rassomlar o‘z xalqining madaniyati va san’atidan voz kechmadilar. Aksincha, yangi tasvirlash usullarini milliy hayot va badiiy qarashlar bilan bog‘lashga harakat qildilar.

XX asrning 1920–1930-yillarida O‘zbekistonda yangi san’at ta’limi shakllandi. Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarda rassomlik studiyalari faoliyat yurita boshladi. Rossiya va boshqa hududlarda ta’lim olgan rassomlar O‘zbekistonga kelib ijod qildilar, mahalliy san’at muhitining rivojlanishiga hissa qo‘shdilar. Shu davrda realizm an’analari bilan bir qatorda yangi badiiy izlanishlar ham mavjud edi [4; 5].

Shunday ekan, Rus badiiy maktablarining ta’siri, avvalo, tasvirlash mahoratida ko‘rindi. Rassomlar inson qomatining nisbatlarini to‘g‘ri ko‘rsatish, predmetlarning hajmini yorug‘lik va soya orqali ochish, tabiat ranglarini kuzatish hamda tasvirni yaxlit kompozitsiyaga birlashtirishga ko‘proq e’tibor bera boshladilar. Bu tajribalar o‘zbek rassomlarining kasbiy mahorati oshishiga yordam berdi. Biroq bu jarayonni faqat bir san’at maktabining boshqasiga ta’siri sifatida tushunish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ya’ni, O‘zbekistonga kelgan rassomlarning o‘zi ham mahalliy muhitdan ilhom oldilar. Ular qadimiy shaharlar, bozorlar, xalq kiyimlari, milliy me’morchilik va kundalik hayot manzaralarini o‘z asarlarida aks ettira boshladilar. Natijada turli badiiy qarashlar o‘zaro uchrashib, yangi ijodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirdi [4; 6].

Shu jihatdan XX asrning birinchi yarmi O‘zbekiston rangtasviri tarixida muhim bosqich vazifasini o‘tadi. Bu davrda yangi tasvirlash tajribasi bilan milliy madaniyat o‘rtasida aloqa yaxshigina kuchaydi. Rassomlar tayyor usullarni shunchaki takrorlash bilan cheklanmay, ularni o‘zlari yashagan muhitni tasvirlashga moslashtirdilar.

Shu bilan bir qatorda o‘zbek xalqining amaliy bezak san’ati ham boy tarixga ega. Masalan, koshinkorlik, ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, gilamdo‘zlik va boshqa san’at turlarida rang hamda naqsh muhim o‘rin egallaydi. Bu san’at turlarida ranglar tasodifiy tanlanmaydi balki, ular buyumning shakli, vazifasi va umumiy ko‘rinishi bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi.

Bu borada ustoz san’atshunos tadqiqotchilar ham tadqiqot ishlarida o‘z qarashlarini bildirib o‘tishgan. Masalan, Kamola Akilovaning O‘zbekistonning XIX asr oxiri XXI asr boshlaridagi amaliy bezak san’atiga bag‘ishlangan tadqiqotida xalq bezak san’atining o‘ziga xosligi, tarixiy merosni saqlash va uning rivojlanish jarayonlari o‘rganilgan [3]. Bu qarashlar XX asr birinchi yarmidagi o‘zbek rassomlari ijodini tahlil qilishda ham ahamiyatlidir. Chunki rassomlar asarlarida milliy naqshlar, an’anaviy kiyimlar, me’moriy bezaklar va xalq turmushi tasvirlari muhim badiiy manba bo‘lib xizmat qilgan.


Akbar Hakimovning O‘zbekiston san’ati tarixiga oid tadqiqotlari ham milliy san’atning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Muallifning “O‘zbekiston san’ati: tarix va zamonaviylik” asarida milliy san’atning tarixiy rivoji va zamonaviy jarayonlariga e’tibor qaratilgan [9]. Ushbu ilmiy qarashlar asosida XX asr birinchi yarmidagi o‘zbek rangtasvirini faqat yangi tasvirlash usullarining kirib kelishi bilan emas, balki mahalliy badiiy an’analarning davom etishi va yangi ijodiy tajribalar bilan uyg‘unlashuvi orqali

ham baholash mumkin.

Dastgohli rangtasvir rivojida ham bunday an’analar muhim badiiy manba bo‘lib xizmat qildi. Masalan, tarixiy shaharlar me’morchiligidagi ko‘k, moviy, oq va boshqa ranglarning uyg‘unligi rassomlarga yangi rang yechimlarini izlash uchun imkon yaratdi. Milliy matolar, kiyimlar va bezak buyumlaridagi ranglar ham portret va maishiy janrdagi asarlarga o‘ziga xos ko‘rinish bag‘ishladi. Milliy bezak an’analari faqat tasvir ichiga naqsh kiritish bilan cheklanmaydi. Ular kompozitsiyani tuzish, ranglarni takrorlash, shakllarni tartibli joylashtirish va tasvirning umumiy ritmini yaratishda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, me’moriy bezaklarda uchraydigan takroriy shakllar va ranglar muvozanati rangtasvir kompozitsiyasida ham badiiy yechim topishi mumkin. Shu sababli amaliy bezak san’ati va dastgohli rangtasvirni bir-biridan butunlay ajratib bo‘lmaydi. Ularning vazifasi va ishlatiladigan materiali turlicha bo‘lsa-da, ikkala yo‘nalishda ham rang, shakl, ritm va kompozitsiya muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu umumiy jihatlar turli san’at turlarining o‘zaro boyishiga yordam beradi.

Rassomlar ijodida milliy va yangi badiiy qarashlarning uyg‘unligi haqida so‘z borar ekan, XX asrning birinchi yarmida O‘zbekiston san’at muhitida Aleksandr Volkov, Pavel Benkov va Aleksandr Nikolayev kabi rassomlar haqida aytib o‘tmaslikni iloji yo‘q. Ularning asarlarida mahalliy hayot, me’moriy muhit, inson qiyofasi va ranglar olami turli badiiy usullarda aks etgan. Soha mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarida ushbu rassomlar ijodida Sharq san’ati an’analari va Yevropa badiiy qarashlarining o‘zaro ta’siri alohida ko‘rib chiqiladi[5; 6].

Masalan, Pavel Benkovning O‘zbekiston hayotiga bag‘ishlangan asarlarida shahar ko‘chalari, bozorlar, me’moriy binolar va mahalliy aholining kundalik hayoti tasvirlangan. Rassom ranglar va yorug‘lik munosabatlariga alohida e’tibor bergan. Masalan, uning Buxoro bozoriga bag‘ishlangan asarida qadimiy me’morchilik, savdo muhiti va odamlarning kiyimlari birgalikda tasvirlanib, mahalliy hayotning o‘ziga xos manzarasini yaratadi [7].



1-rasm. Pavel Benkov, “Buxorodagi yopiq bozor”, 1920-1930-yillar. Moybo‘yoq, mato.



2-rasm. Pavel Benkov, “Buxoro”, 1929-yil Moybo‘yoq, mato.

Aleksandr Volkov ijodida esa ranglarning kuchli ifodasi, shakllarning o‘ziga xos joylashuvi va turli badiiy izlanishlar ko‘zga tashlanadi. Uning asarlarida mahalliy hayot va milliy muhit yangi kompozitsion yechimlar bilan birlashadi. Masalan, uning “O‘zbek to‘yi” nomli asarida milliy kiyimlar, naqshli matolar, sozandalar va xalq bayrami tasvirlangan. Ranglar va bezaklarning o‘zaro uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin. Usto Mo‘min nomi bilan tanilgan rassom Aleksandr Nikolayev ijodida ham milliy san’atga xos xususiyatlar va boshqa badiiy an’analar

o‘rtasidagi aloqa muhim o‘rin tutadi [4; 5]. Rassom ijodida milliy hayot, nozik chiziqlar va Sharq miniatyurasiga yaqin badiiy ifoda xususiyatlarini ko‘rish mumkin.



3-rasm. Aleksandr Volkov, “O‘zbek to‘yi”.



4-rasm. Aleksandr Nikolayev (Usto Mo‘min), “Dutorchi yigit” 1924-yil.

Bu rassomlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yangi badiiy usullar milliy san’atni chetga surishi shart emas, aksincha, ular mahalliy madaniyatni boshqa usulda ko‘rsatish, rang va shakl imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Muhimi, rassom o‘z asarida tasvirlanayotgan xalqning hayoti va madaniyatini tushunishi, uni samimiy va ishonarli ifodalashga intilishidir.

Bugungi kunimizdagi tasviriy va amaliy san’atning holati va rivoji uchun tarixiy tajribaning ahamiyati beqiyosdir. XX asrning birinchi yarmidagi badiiy jarayonlarni o‘rganish bugungi rassomlar va talabalar uchun ham muhim sanaladi. Chunki tarixsiz bugun ham kelajak ham bo‘lmaydi. Vaholanki, bu tarixiy tajriba milliy an’analar va yangi badiiy qarashlarni birlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi. Hozirgi rassomlar ham xalq amaliy bezak san’ati, me’moriy obidalar, milliy matolar va tarixiy ranglar uyg‘unligidan ijodiy manba sifatida foydalanishlari mumkin. Bunda tarixiy shakllarni aynan takrorlamay ularning asosiy xususiyatlarini tushunish va zamonaviy ijodiy maqsadga moslashtirisha olishdir. Masalan, milliy naqshlarning takrorlanishidan kompozitsion ritm yaratishda, tarixiy binolardagi ranglar uyg‘unligidan kolorit tanlashda yoki xalq hayotiga xos buyum va kiyimlardan obraz yaratishda foydalanish mumkin.

Bunday yondashuv Turk dunyosi san’atining umumiy madaniy merosini o‘rganish uchun ham foydalidir. Turli turkiy xalqlarning me’morchiligi, amaliy bezak san’ati va rangtasvirida o‘ziga xos jihatlar mavjud. Ularni qiyosiy o‘rganish o‘xshashliklar va farqlarni aniqlashga, milliy san’atlarning rivojlanish yo‘llarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Yosh rassomlarni tayyorlash jarayonida ham tarixiy asarlarni kuzatish, ularning rang va kompozitsiyasini tahlil qilish, so‘ng shu tajriba asosida mustaqil eskizlar yaratish muhimdir. Bu usul talabada nafaqat tasvirlash mahoratini, balki o‘z milliy madaniyatiga qiziqish va ijodiy yondashuvni ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning birinchi yarmida rus badiiy maktablari O‘zbekiston dastgohli rangtasvirining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Yangi tasvirlash usullari, inson qomatini o‘rganish, yorug‘lik va soya bilan ishlash hamda kompozitsiya tuzish tajribasi mahalliy rangtasvirning kasbiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, o‘zbek

xalqining me’morchiligi, milliy naqshlari, kiyimlari va kundalik hayoti rassomlar uchun muhim ijodiy manba bo‘lib qoldi. Turli badiiy qarashlarning uchrashuvi milliy rangtasvirning o‘ziga xos yo‘l bilan rivojlanishiga yordam berdi. Mazkur tarixiy tajriba amaliy bezak san’ati va dastgohli rangtasvir o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish uchun ham ahamiyatlidir. Rang, naqsh, shakl va kompozitsiya kabi umumiy vositalar turli san’at turlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. Bugungi kunda ushbu merosni chuqur o‘rganish va undan zamonaviy ijodda oqilona foydalanish milliy san’atning davomiyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Махмудов Т. М. Эстетический анализ основных тенденций развития современного искусства Узбекистана: автореферат диссертации доктора философских наук. - М., 1979. - 32 с.
2. Лаковская В. Л. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. Основные тенденции: диссертация кандидата искусствоведения: 17.00.04. - Ташкент, 1984. - 201 с.: ил. + прил. в 2 т. (59 с., 109 с.: ил.).
3. К. Акилова. “Декоративно-прикладное искусство Узбекистана конца XIX – начала XXI вв.” 2004 г.
4. UNESCO. History of Civilizations of Central Asia. Volume VI: Towards the Contemporary Period: From the Mid-Nineteenth to the End of the Twentieth Century. Paris: UNESCO Publishing, 2005.
5. Abbasova, G. E. “The East and the West: The Problem of Tradition in the Works of Uzbekistan’s Artists in the 1920s–1930s.” Actual Problems of Theory and History of Art.
6. Alimkulova, D. “Little Known Paintings of Uzbekistan Artists of 1920s–1930s.” San’at, 2008, No. 3–4. https://sanat.orexca.com/2008/2008-3/dilnoza_alimkulova-2/
7. Covered Bazaar in Bukhara. Pavel Benkov. Russian Impressionism Museum Collection. https://files.rusimp.org/en/collection/object/257
8. “When Did the Central Asian Avant-Garde Begin?” Cultural Legacy of Uzbekistan. https://legacy.uz/en/when-did-the-central-asian-avant-garde-begin/
9. Хакимов А. Искусство Узбекистана история и современность. – Ташкент: АН РУз, 2010. – 504 с.
10. Курбанова, Д. А. (2016). РОЛЬ И МЕСТО МУЗЕЕВ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ В УСТАНОВЛЕНИИ КУЛЬТУРНЫХ ВЗАИМОСВЯЗЕЙ. Paradigmata poznání, 75.
11. Zarifova, D. (2023). TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING. Modern Science and Research, 2(10), 391-393.
12. Zarifova Dilfuza Omon qizi. (2025). O'ZBEKISTON DASTGOHLI RANGTASVIRI RIVOJI: XX ASR YEVROPA BADIIY MAKTABLARI TASIRI KONTEKSTIDA. https://doi.org/10.5281/zenodo.17612703
13. D.O.Zarifova XX ASR YEVROPA BADIIY MAKTABLARI VA ULARNING MARKAZIY OSIYO SAN’ATIGA TA’SIRI. ORIENTAL ART AND CULTURE, 7(02), 2026. 53-62.
14. Sevara Shavkatovna Alyaminova. (2026). PLAYGROUND CLASSIFICATION: FROM TYPOLOGY TO FUNCTIONAL TYPES [Dataset]. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.19366852
15. Sevara Alyaminova. THE ORIGINS AND HISTORICAL DEVELOPMENT OF GAMES AND TOYS. (2026). *Journal of Culture and Art*, *4*(1), 17-22.

https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/2055

16. Аляминова Севара Шавкатовна. (2026, May 1). ПРОЕКТИРОВАНИЕ ИГРОВЫХ ПЛОЩАДОК: ОТ ДИЗАЙН-КОНЦЕПЦИИ К ТЕХНОЛОГИЧНОМУ ПРОИЗВОДСТВУ. https://doi.org/10.5281/zenodo.19939728